



ONA TILI HAMDA ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARNING SAMARASI

Xurmatoy Bo'riboeva Ikromovna

*Toshkent viloyat Yangiyo'l shahar 9- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi onatili va
adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarning tafakkur dunyosining keng bo'lishida adabiyot ta'limining o'rni haqida mulohazalar bildirilgan. Adabiyot darslarini tashkil etishda interaktiv metodlar hamda ularning samarasi haqida fikr bildirilgan va ba'zi metodlar tavsiya sifatida keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim tizimi, adabiyot darslari, darslik, yondashuv, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, pedagog.*

Qadim-qadimdan adabiyot nafaqat shaxs uchun, balki butun insoniyat uchun muhim hisoblanib kelingan. Badiiy so'z hamda uning qudrati butun koinotda azaldan mavjudigini unutmashimiz kerak. Birgina yaral amridan butun zamin yaratilganligi so'zimizning isbotidir.

Buyuk mutaffakur bobolarimiz Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa adiblar ijodida ham badiiy so'zning inson tarbiyasiga, uning ma'naviy kamolotiga ta'siri bilan bog'liq qimmatli fikrlarni juda ko'plab uchratish mumkin. XVII asrdan XIX asming birinchi yarmigacha o'tgan davrda, ayniqsa, XIX asming ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda pedagogik, metodik filer o'ziga xos tarzda rivojlandi. Masalan, Dilshod Bamo (1800 - 1906) asarlaridan uning ellik bir yil maktabdorlik qilganini, to'qqiz yuzga yaqin qizni savodli qilib chiqarganini, ulardan yaqin to'rt dan bir qismi «tab'i nazmi bor» shoira, oqila qizlar bo'lib yetishganini ko'rish mumkin. Anbar Otindek taniqli shoira ham Dilshod Barno maktabining o'quvchisi bo'lganini ta'kidlash o'rindir.

Mustaqillikning ilk davrida, milliy tarbiyashunoslikni yangilashga qaratilgan, pedagogika ilmi va amaliyotida shu vaqtga qadar mavjud bo'lmagan rasmiy pedagogik hujjat - fanlar bo'yicha ta'lim konsepsiyalari yaratildi. Shular qatorida "Adabiy ta'lim konsepsiyasi" ham ishlab chiqilib, unda yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari belgilab berildi. Maqsad va vazifalarning yangilanishi adabiy ta'limning mazmunii hamda o'qitish usullarini ham o'zgartirishni taqozo qildi.

"Adabiy ta'lim konsepsiyasi"dagi yetakchi g'oyalar asosida adabiyot o'qitish bo'yicha «Davlat ta'lim standarti» yaratilib, unda turli sinflarning dastur va darsliklarida ko'zda tutilishi hamda o'quvchilar o'zlashtirishlari shart deb belgilangan bilim, ko'nikma, malakalar va ma'naviy sifatlarning minimal ko'rsatkichlari ham o'z ifodasini topti. DTSning minimal talablar qismi ta'lim jarayonida qatnashayotgan sog'lom bola erishishi shart bo'lgan marra hisoblanib, u davlat tomonidan muayyan bosqichni bitirayotgan o'quvchiga qo'yiladigan talabni anglatadi. "Adabiy ta'lim standarti"da belgilangan mezonlarga tayanib yangidan tuzilgan "Adabiyot" dasturida



maktabda adabiyot o'qitishning maqsadi yo'lida soha mutaxassislari tomonidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim deb topilgan bilimlar tizimi aks etdi.

Davr bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining oldiga yangicha talablar qo'ymoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ulaming ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi. Bugungi kunda adabiyot o'qituvchisi katta bilim, keng dunyoqarash, takakurga ega bo'lishi muhim. Sababi adabiyot darslarini tashkil etilishida pedagogning o'rni kattadir.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilish jarayonida o'quvchilar odam va olam sirlarini o'rganadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir-oqibat navqiron fuqaro o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglagan, mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lgan odam o'z taqdirini boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo'l qo'ymaydi. Insonga xos xususiyatlar bevosita ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham bugun ma'naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosidagi muhim vazifaga aylandi. Ma'naviyatni tarbiyalash esa maktabda asosan adabiy ta'lim tizimi zimmasiga yuklanadi. To'g'ri, barcha o'quv fanlari zimmasida ma'lum darajada ma'naviyatni shakllantirish vazifasi bor. Biroq, adabiy ta'lim bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning tadqiqot obyektining o'zi - inson. Adabiyot darslarida odamning ichki olami, his-tuyg'ulari, kechinmalari, hayajonlari, iztiroblari o'rganiladi, tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi. Inson umri davomida turli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari aniqlanadi.

Hozirgi adabiy talimda interaktiv metodlar muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv metodlar – bu ta'lim jarayonining faol, qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlash uchun mo'ljallangan ta'lim strategiyalari to'plamidir. Ushbu metodlar o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish, o'z fikrlarini erkin ifoda etish va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Interaktiv metodlar quyidagi faoliyatlar va yondashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Guruh ishtirokida munozara: O'quvchilar guruhlariga bo'linib, biror mavzu yuzasidan o'z fikrlarini almashadilar va muammoga birgalikda yechim topishadi.

Rollarda o'ynash: O'quvchilar turli rollarni o'ynaydilar, bu orqali turli nuqtai nazardan fikr yuritish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Klaster (Bungabunga) metodi: O'quvchilar bir mavzu atrofida turli tushunchalar va g'oyalar asosida asosiy va yordamchi tushunchalar tarmog'ini yaratadilar.

Ko'rgazmali o'qitish: Dars jarayonida interaktiv doskalar, projektorlar, kompyuterlar va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

O'zaro baholash: O'quvchilar bir-birlarining ishlarini baholaydilar, bu orqali tanqid va fikr almashish madaniyatini shakllantiradilar.

Savol-javob: O'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi va darhol javob oladi, kreativ o'y fikrlashni rag'batlantiradi.

Brainstorming (Miyaga Hujum): O'quvchilar bir mavzuni yoki muammoni hal qilish uchun fikrlar yig'indisini o'tkazadilar.



Kichik guruhlarda ishlash: O'quvchilar bir nechta kichik guruhlarga bo'linib, ma'lum bir vazifani yoki loyihani amalga oshiradilar.

Simulyatsiya va modellashtirish: O'quvchilar aniq vaziyatlar yoki hodisalarni modellashtirish orqali amalda o'rganadilar.

O'yinlar va harakatli mashg'ulotlar: O'quv jarayonini o'yinlar orqali qiziqarli qilish, o'quvchilarni o'rganishga faol jalb qilish.

Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol qatnashishga undash orqali pedagogik jarayonni yanada jonli va samarali qiladi. Bunday usullarni ta'limning har qanday bosqichlarida, shu jumladan maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan darajalarda qo'llash mumkin. Interaktiv metodik yondashuvlar pedagoglar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari tomonidan joriy etilishi va muntazam ravishda yangilanib turilishi kerak bo'ladi, shunda ularning effektivligi ta'minlanadi va o'quvchilarning o'zlashtirishiga yordam beradi.

Interaktiv metodlarni adabiyot darslarida qo'llash orqali pedagog bir qancha samaraga erishadi. Mavzuning aniq o'zlashtirilishi, ta'lim oluvchining qulay va oson tushunishi hamda turli topshiriqlar orqali mustahkamlanishiga.

Quyida ba'zi metodlar bilan tanishamiz:

◆◆◆**Tasavvur (assostiastiya) lar tahlili**◆◆◆

◆◆◆Mavzuning kirish qismi tushuntiriladi. O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi.

◆◆◆O'qituvchi mavzuga bevosita aloqador tushunchalarni o'qiydi va ishtirokchilardan bu tushunchalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan tasavvurlarni o'z kartochkalariga yozib borishlarini so'raydi.

◆◆◆O'quvchi mantiqan o'ylab, o'z tasavvur qobiliyatini ishga solishi kerak.

◆◆◆Keyin kartochkalar to'planadi va o'qituvchi tomonidan barcha tanishib chiqishi uchun aralash holda tarqatib beriladi.

◆◆◆O'quvchilar tengdoshi yozgan tasavvur mahsulini o'qiydi va izoh berishga harakat qiladi.

◆◆◆Natijalar muhokama qilinadi va sharhlanadi.



G'ijimlangan qog'oz



Mavzuni doskaga yozasiz. 2ta guruh hosil qiling. Siz boshlab beruvchi ishtirokchi bo'lasiz. 2 ta listga bir xil narsa yozasiz. Ya'ni, mavzuga doir bir tushuncha. Va ikkala jamoaning yetakchi o'quvchilariga o'sha listlarni g'ijimlab otasiz.

O'quvchilar siz boshlagan jumlani davom ettirgan holda to'liq qilib, o'sha tushunchaning ma'nosini ochib berishi kerak. Har bir ishtirokchi 1tdan so'z yozish imkoniyatiga ega. (balki, 2-3ta so'z. Tushunchaning oddiy yoki murakkabligiga qaraysiz). Shu tariqa ishtirokchilar g'ijimlangan qog'ozlarni bir-birlariga otib, ma'lumotni to'ldiraveradilar. Qaysi jamoa birinchi va to'liq javob bersa, g'olib bo'ladi. Foydali tomonlari juda ko'p, menimcha. Ayrimlarini yozaman:

Ziyraklik oshadi. O'rtog'i nima yozdi, o'zi nima yozadi, shu haqida o'ylay boshlaydi. Miyasidagi barcha bilimlarni titib, mavzu bo'yicha keraklilarini izlaydi.

Birdamlik. Jamoasining g'alabasi unga bog'liq ekanligini his qiladi. Bor kuchini ishga soladi.

Mana shu va boshqa interaktiv metodlardan adabiyot darslarida foydalanilsa kutilgan natijaga erishish osonlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1967;
2. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi?- T.: "O'qituvchi", 1993.11-bet.